



**HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINING DAVLAT VA JAMIYAT
HAYOTIDAGI O'RNI**

Sattorov Dilshod Yuldashevich

Ilmiy rahbar-bojxona institute o'qituvchisi

Safarov Mirjalol Ahadjon o'g'li

Bojxona instituti 1-kurs 425-guruh kursanti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada huquqiy tartibga solish mexanizmi tushunchasi, uning nazariy-huquqiy mohiyati va asosiy tarkibiy elementlari tahlil qilinadi. Huquqiy normalar, huquqiy munosabatlar, huquqiy faktlar, huquqni qo'llash hujjatlari hamda yuridik javobgarlik huquqiy tartibga solish mexanizmining muhim unsurlari sifatida yoritib beriladi. Shuningdek, huquqiy tartibga solish mexanizmining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni, huquq ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada huquqiy tartibga solish mexanizmining samaradorligini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqiy tartibga solish mexanizmi, huquq normasi, huquqiy munosabatlar, huquqiy fakt, huquqni qo'llash, yuridik javobgarlik, huquq ustuvorligi.*

Аннотация: *В статье анализируется понятие механизма правового регулирования, его теоретико-правовая сущность и основные структурные элементы. Раскрывается роль правовых норм, правоотношений, юридических фактов, актов применения права и юридической ответственности как ключевых компонентов механизма правового регулирования. Особое внимание уделяется значению механизма правового регулирования в обеспечении верховенства закона, защите прав и свобод человека, а также в развитии государства и общества. В работе рассматриваются вопросы повышения эффективности правового регулирования.*

Ключевые слова: *механизм правового регулирования, норма права, правоотношения, юридические факты, применение права, юридическая ответственность, верховенство закона.*

Abstract: *This article examines the concept of the mechanism of legal regulation, its theoretical and legal essence, and its main structural elements. The role of legal norms, legal relations, legal facts, acts of law enforcement, and legal responsibility as key components of the mechanism of legal regulation is analyzed. Special attention is paid to the importance of the mechanism of legal regulation in ensuring the rule of law, protecting human rights and freedoms, and promoting the development of the state and society. The article also addresses issues related to improving the effectiveness of legal regulation.*

Keywords: *mechanism of legal regulation, legal norm, legal relations, legal facts, law enforcement, legal responsibility, rule of law.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Huquqiy tartibga solish mexanizmi davlat va jamiyat hayotida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari orqali tartibga solish jarayonini ifodalovchi muhim nazariy-huquqiy tushunchalardan biridir. Mazkur mexanizm orqali huquq normalari real ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi, huquqiy xatti-harakatlar shakllanadi hamda jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartib ta'minlanadi. Shu bois huquqiy tartibga solish mexanizmi huquq nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, uning mazmunini chuqur o'rganish huquqiy davlat barpo etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida huquqiy tartibga solish mexanizmi turli huquqiy tizimlar va davlat boshqaruvi modellari doirasida shakllangan. Rivojlangan demokratik davlatlarda huquqiy tartibga solish mexanizmi, avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda davlat hokimiyatining cheklangan va hisobdor bo'lishiga xizmat qiladi. Huquqiy normalarning aniq va barqaror bo'lishi, sud hokimiyatining mustaqilligi, huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligi ushbu mexanizmning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, huquqiy tartibga solish mexanizmi qanchalik mukammal bo'lsa, jamiyatda huquqiy madaniyat va ijtimoiy barqarorlik shunchalik yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy tartibga solish mexanizmi Konstitutsiya va amaldagi qonunchilik asosida izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatda huquqiy davlat barpo etish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonida huquqiy tartibga solish mexanizmining samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Xususan, "Yangi O'zbekiston" islohotlari doirasida qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish, sud-huquq tizimini mustahkamlash orqali huquqiy tartibga solish mexanizmi yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Shu jihatdan, huquqiy tartibga solish mexanizmini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, jahon tajribasi bilan qiyoslab o'rganish hamda O'zbekiston Respublikasida ushbu mexanizmning rivojlanish xususiyatlarini yoritish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Konstitutsiyaning 15-moddasida davlatda qonuniylik va huquqiy tartibga solishning konstitutsiyaviy asoslari aniq belgilangan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi va Konstitutsiya mamlakat hududida oliy yuridik kuchga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi. Bu norma huquqiy tartibga solish mexanizmining konstitutsiyaviy maydonini yaratadi, chunki barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalariga mos bo'lishi shartligi belgilanadi.[1]

Bu prinsip huquqiy tartibga solish mexanizmining eng muhim unsuridir: davlat organlari, mansabdor shaxslar va tashkilotlar faoliyati Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega bo'lishi jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi, huquq normalarining oldindan bashorat qilinishini kafolatlaydi va ijtimoiy munosabatlarda adolat tamoyilini mustahkamlaydi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘zbekiston Respublikasida ushbu mexanizmning poydevorini Konstitutsiya va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Ayniqsa, 2021-yil 20-aprelda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-682) normativ-huquqiy hujjatlarning yaratilishi, kuchga kirishi, qo‘llanilishi va ijtimoiy munosabatlarga ta’sir mexanizmini tartibga soluvchi hujjat sifatida huquqiy tartibga solish mexanizmining amaliy poydevorini tashkil etadi.[2]

Huquqiy tartibga solish mexanizmi — bu ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar orqali tartibga soluvchi tizimli jarayon bo‘lib, u davlat organlari, fuqarolar va jamiyatning boshqa subyektlari faoliyatini qonuniy asosda boshqaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” konsepsiyasi huquqiy tartibga solish mexanizmini davlat boshqaruvi va ijtimoiy barqarorlikning asosiy elementi sifatida belgilaydi.[3]

Huquqiy tartibga solish mexanizmi konsepsiyasi klassik huquq nazariyasi doirasida S. S. Alekseev tomonidan keng tadqiq etilgan. Muallif huquqiy tartibga solish mexanizmini ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar orqali boshqarish va tartibga solish tizimi sifatida ko‘rsatadi.

Alekseev nazariyasida huquqiy tartibga solish mexanizmining birinchi asosiy elementi — huquqiy norma hisoblanadi. Huquqiy norma jamiyatda qabul qilingan, rasmiy va majburiy bo‘lgan xatti-harakat qoidasi sifatida tushuniladi. Bu norma fuqarolar, davlat organlari va boshqa subyektlar faoliyatini tartibga soladi va ularning huquqiy majburiyatlarini belgilaydi.[4]

Huquqiy normalar mexanizmning nazariy bazasi bo‘lib, ularning mustahkamligi va aniqligi huquqiy tartibga solishning samaradorligini belgilaydi. Normaning aniqligi va barqarorligi huquqiy xatti-harakatlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Ikkinchi element — huquqiy munosabat. Bu element mexanizmni amaliyot bilan bog‘laydi: huquqiy norma subyektlar o‘rtasida konkret ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Alekseev ta’kidlaydiki, huquqiy munosabat mexanizmning faoliyat qismi bo‘lib, unda majburiyat va javobgarlik aniq belgilanadi. Bu element orqali normaning real hayotga tatbiqi amalga oshadi.

Uchinchi element — huquqiy fakt, ya’ni norma qo‘llaniladigan holatlar va shart-sharoitlar. Alekseev fikricha, mexanizm faqatgina norma va munosabatdan iborat bo‘lmay, balki konkret vaziyatlarda qoidaning qo‘llanilishi orqali ijtimoiy tartibni ta’minlaydi. Huquqiy fakt mexanizmning operativligini ta’minlaydi va ijtimoiy munosabatlarda qonuniylikni kafolatlaydi.

To‘rtinchi element — huquqiy javobgarlik. Alekseevning nazariyasida mexanizmning samaradorligi huquqiy javobgarlik mavjudligi bilan mustahkamlanadi. Huquqbuzarlik yuz berganda, davlat tomonidan tegishli choralar qo‘llaniladi, bu esa jamiyatda norma va qoidalar ustuvorligini kafolatlaydi.

Deklaratsiyada belgilangan asosiy huquqlar huquqiy tartibga solish mexanizmi uchun universal prinsiplar sifatida xizmat qiladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Insonning huquqiy tengligi: barcha shaxslar qonun oldida teng hisoblanadi (1-moddasi);[5]

Hayot va shaxsiy daxlsizlik kafolati: har bir insonning hayot, erkinlik va shaxsiy daxlsizligi himoyalanaadi (3-moddasi);[6]

Adolatli sudlovga huquq: har bir kishi qonuniy va adolatli sudlovga ega bo‘lishi kafolatlanadi (10-moddasi);[7]

So‘z, diniy va siyosiy erkinliklar: fuqarolar o‘z fikrini erkin ifodalash, din va e‘tiqodini tanlash huquqiga ega (18–19-moddalari).[8]

Bu tamoyillar huquqiy tartibga solish mexanizmining asosiy vazifalarini belgilaydi: fuqarolarning erkinliklari va majburiyatlari aniq belgilanishi, davlat va jamiyatning huquqiy mas‘uliyatini tartibga solish, huquqbuzarliklarni oldini olish va barqaror ijtimoiy tizim yaratish.

Bir so‘z bilan aytganda, Huquqiy tartibga solish mexanizmi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar orqali tartibga soluvchi murakkab tizim bo‘lib, davlat organlari, fuqarolar va jamiyatning boshqa subyektlari faoliyatini qonuniy asosda boshqarish imkonini beradi. Ushbu mexanizmning asosiy tarkibiy elementi sifatida huquq normasi hisoblanadi, u jamiyatda qabul qilingan va majburiy xatti-harakatlar qoidasi bo‘lib, fuqarolar va mansabdor shaxslarning huquqiy majburiyatlarini aniqlaydi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda qonun ustuvorligini ta‘minlaydi. Huquq normasi amaliyotga tatbiq etilganda, u huquqiy munosabatlar tizimini yuzaga keltiradi, bunda fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi huquqlar va majburiyatlar, qonuniy imtiyozlar va cheklovlar aniq belgilanadi, shaxslararo va davlat bilan shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Bunday munosabatlar yuzaga kelishida huquqiy fakt muhim rol o‘ynaydi, ya‘ni norma qo‘llaniladigan yoki munosabat yuzaga keladigan aniq ijtimoiy hodisa yoki shart-sharoit bo‘lib, masalan, shartnoma tuzish, qonuniy majburiyatni bajarmaslik yoki jinoyat sodir etish kabi holatlar huquqiy fakt sifatida qaraladi. Normaning amaliyotga tatbiqi huquqni qo‘llash orqali amalga oshiriladi, bunda fuqarolar va davlat organlari faoliyatidagi qonuniylik tekshiriladi, huquqbuzarliklar aniqlanadi va bartaraf etiladi, sud va ijro etuvchi organlar faoliyati muvofiqlashtiriladi. Mexanizmning samaradorligini ta‘minlovchi muhim vosita sifatida yuridik javobgarlik mavjud bo‘lib, norma buzilganda qonuniy choralar qo‘llanadi, fuqarolar va mansabdor shaxslarni qonuniy harakat qilishga majbur qiladi va huquqiy tartibga solish mexanizmi orqali adolatni kafolatlaydi. Shu bilan birga, huquqiy tartibga solish mexanizmi faoliyatining eng muhim printsipi sifatida huquq ustuvorligi mavjud bo‘lib, u qonunning davlat va fuqarolar oldida ustunligini, barcha ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asosda tartibga solinishini va davlat organlari hamda jamiyat subyektlari faoliyatida qonuniylikni kafolatlaydi. Shu tarzda huquqiy tartibga solish mexanizmi huquq normasi, huquqiy munosabatlar, huquqiy fakt, huquqni qo‘llash, yuridik javobgarlik va huquq ustuvorligi elementlariga asoslangan holda jamiyatda qonuniylikni ta‘minlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va davlat boshqaruvini samarali tashkil etish vazifasini bajaradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jahon miqyosida huquqiy tartibga solish mexanizmi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, adolatni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Bu mexanizm jamiyatda qonuniylikni saqlash, fuqarolar va davlat organlari o'rtasida adolatli va teng munosabatlarni yaratish hamda huquqbuzarliklarni oldini olish imkonini beradi. Uni tashkil etuvchi normativ asos, huquqiy munosabatlar, huquqiy faktlar, huquqni qo'llash, yuridik javobgarlik va huquq ustuvorligi elementlari bir-birini to'ldiradi va mexanizmning samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu tarzda huquqiy tartibga solish mexanizmi nafaqat nazariy konsepsiya, balki jamiyatda barqarorlik va adolatni yaratishning amaliy vositasi sifatida ahamiyatga ega.

O'zbekiston doirasida esa huquqiy tartibga solish mexanizmi davlat boshqaruvini samarali tashkil etish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash va fuqarolarning huquqiy kafolatlarini ta'minlash orqali o'z ifodasini topadi. Mexanizm jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy bilimini oshirish va davlat organlari faoliyatini shaffoflashtirishga xizmat qiladi. Shu tarzda u nafaqat xalqaro tamoyillar bilan uyg'unlashadi, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi va demokratik boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Huquqiy tartibga solish mexanizmi — bu jamiyat va davlat faoliyatini qonuniylik asosida tartibga soluvchi, inson huquqlari va adolatni ta'minlovchi murakkab tizimdir. U normativ-huquqiy hujjatlar, huquq normasi, huquqiy munosabatlar, huquqiy faktlar, huquqni qo'llash, yuridik javobgarlik va huquq ustuvorligi orqali o'z samarasini beradi. Mazkur mexanizm davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, huquqbuzarliklarning oldini oladi va qonun ustuvorligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, huquqiy tartibga solish mexanizmi insonning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, jamiyatda barqarorlikni yaratish va demokratik boshqaruv tamoyillarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Umuman olganda, mexanizmning samarali ishlashi orqali huquqiy davlatni rivojlantirish, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyati yaratiladi, bu esa har bir jamiyatning barqaror va taraqqiy etgan kelajagi uchun muhim zamin hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil/Toshkent (Yangi tahrir)
2. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan, O'RQ-682-sonli qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida.
4. Alekseev S. S. — Механизм правового регулирования.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948. United Nations General Assembly, Resolution 217 A (III), Paris.

